

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi:

Ortopedik stomatologiya fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga kirish test sinovlarida oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda Ortopedik stomatologiya faniga oid o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan “Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom”;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining “2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida”gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;
- Ortopedik stomatologiya faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Ortopedik stomatologiya fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi:

Ortopedik stomatologiya fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi
1.1	Ortopedik stomatologiya fan sifatida Ortopedik stomatologiya fanlar sistemasi, fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Ortopedik stomatologiya fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning Ortopedik stomatologiya fani rivojiga qo'shgan hissalar.
1.2	Ortopedik stomatologiya tizimlar haqida umumiy tushuncha Ortopedik stomatologiya propedeutikasi: stomatologiyaga kirish, boshlabg'ich ortopedik stomatologiyani tushunchalari. Fakultativ ortopedik stomatologiya, Gospital ortopedik stomatologiya.
1.3	Ortoped stomatolog fanga kirish birlamchi tushuncha Mutaxassislikka kirish. Stomatolog tish sozlash texnigi ish joyini tashkil kilishning ergonomik asoslari. Ortopedik stomatologiya tarixi. Deontologiya. Sterilizatsiya va dezinfektsiya. Yatrogenik va yukumli kasalliklarning (OIV infeksiyasi, "V" gepatita va boshkalar) oldini olish Ortopedik stomatologiyada ko'llaniladigan asbob va uskunalar.
1.4	Og'iz bo'shlig'i tuzilish va funksional birligi Protez bilan bog'liq tish protsessining anatomik va fiziologik xususiyatlari. Yukori va pastki jag', alveolyar o'siqlar. Og'iz bo'shlig'ining shillik qavati. Periodontning anatomik va funksional xususiyatlari. Artikulyatsiya va okklyuziya, uning turlari. Tishlarning jipslashuv belgilari. Prikus (tishlov). Tishlov turlari. Fiziologik va patologik tishlov belgilari. Chaynov va yuz mushaklari. Temporomandibulyar bo'g'im (ChPJB). Pastki jag'ning biodinamikasi. Chaynashda va uzib olishda pastki jagning chaynov xarakteridagi boskichlar. Chaynov mushaklarning absolyut kuchi. Chaynash bosimi. Pastki jagning nisbiy tinch holati. Pastki jat xarakterini tasvirlab beradigan asboblar. Yuz egirligi.
1.5	Bemorlarni tekshirish usullari Tekshirishning asosiy va qo'shimcha usullari. Bemorni tashqi tekshiruvi. Og'iz bo'shlig'ini tekshirish. Apparatura tekshirish usullari (termometriya, densitometriya, elektrometriya, galvanometriya, LDF, reografiya, fotopletismografiya, polyarografiya, exosteometriya, rN-o'lchash, rentgenografiya va boshkalar). Chaynash bosimi va chaynash samaradorligini aniklash usullari. ChPJB diagnostikasi usullari.
1.6	Qolip oloish, modellar Qolip oluvchi xom ashyolar, jag'larning qoliplari. Kolip oluvchi xom ashyolarga kuyiladigan talablar va ularning tasnifi. Qolip oluvchi xom ashyolarni kiyosiy baxolash va tanlash. Anatomik va funksional qoliplar, birlamchi va ikkilamchi qoliplar. Sifatli qolipni baxolash mezonlari. Turli xil modellarni olish usullari. Ikki kavatli qolipni olish turlari: ikki boskichli va bir boskichli usulda. ChPJB diagnostikasi usullari.
1.7	Ortoped stomatologiyada qo'llaniladigan qurilma jihozlari Ortopedik stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan tibbiy asbob - uskunalar. Stomatologik qurilmalarning turlari (CIQ. Stomatologik qurilmalarni ishga tayyorlash. Vrach yordamchisi bilan "to'rt q o'llab" ishlashdagi asosiy tushunchalar. Turbinali qo'l tutkichlar, mikromatorlar, Xavo-suv sovutish sistemasi, so'lak suruvchi, chang yutuvchi va boshka moslamalar bilan ipshash xususiyatlari. Birlamchi bemorlarning kurigida va boshka davolash boskichlarida ko'llaniladigan asboblar to'plami. Texnika xavfsizligi.
1.8	Tish yoyi, prikus, paradontologik o'rganish Tish, alveolyar va bazal yoylar xakida tushuncha. Tish va tish yoylari. Periodont to'qimasinin anatomik va funksional xususiyatlari. Tishlarning biofizikasi. Tish

	<p>katorlari barkarorligini ta'minlovchi omillar. Patologik tish chuntagining chukurligini aniklash. Patologik tish xarakatchanligi, uning darajalari. Perkussiya turlari. Tish xarakatchanligini va implantat barkarorligini aniklash usullari (ISQ). Tishsiz alveolyar suyakni tekshirish.</p>
1.9	<p><i>Bemoeni tashxislash, Protezlar</i> Protezlash turlari. Tish protezlarning tasnifi. Ortopedik stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan tish protezlari. Kasallik tarixining tibbiyot va yuridik (xukukiy) xujjat sifatidagi axamiyati. Tishlarning protezini tayyorlash uchun yoziladigan xujjatini tuldish xususiyatlari. Ortopedik davolashning rejasi va maksadi. Stomatologik tashxis (diagnoz) kuyish. Diagnozni aniklash. Nozologik shakllar.</p>
1.10	<p><i>Tish qattiq to'qimalari, charxlash</i> Tish tojining kisman yemirilishi. Kattik tukimalarning shikastlanish tasnifi. Etiologiyasi, patogenezi, klinik kurinishi. Tish nuksonlarining xalkaro tasnifi, bushliklar joylashgan joyning xdrf bilan belgilash. Melikevichga kura TChYuPI. Tishlarning kattik tukimalari zararlangan bemorlarni tekshirish usullari. Ogiz bushligini protezlashga tayyorgarlik. Tishlarning kattik tukimalarini charxlash usuli (texnikasi). Tishlarni charxlash paytida ishlatiladigan asboblardan, olmos va boshqa charxlash vositalari tuplami. Charxlash paytida tishlarning kattik va yumshok tukimalaridagi uzgarishlarni nazariy izoxdash. Tishlarning kattik tukimalari uchun xavfsizlik zonalari. Fantomlar bilan ishlash. Fantomlarda tishlarni charxlash. Chinni, dioksid-tsirkon, metall-keramika va metall-plastmassa uchun charxlashning uziga xos tomonlari. Qoplamalarni og'izda charxlangan tabiiy tishlarga o'lchab ko'rish.</p>
1.11	<p><i>Qistirma turlari</i> Qistirmalar turlari. Vinirlar. Chaynash bosimi kuchlarining ta'sirini hisobga olgan holda qistirma uchun bo'shliqlarni shakllantirish asoslari. Tayyorlash usullari va ketma-ketligi. Metall qistirmalarni ishlab chiqarishning klinik va laborator bosqichlari. Qistirmalar tayorlash bevosita va bilvosita usullari. Ikkala usulning qiyosiy xususiyatlari. Chinni, nur o'tkazmaydigan kompozit xom ashyolardan, plastmassadan, shuningdek kombinirlangan qistirmalarni tayorlashning klinik va laboratoriya bosqichlari. Estetik qistirmalarni plombalar bilan taqqoslash.</p>
1.12	<p><i>Sun'iy qoplamalar</i> Tish toj qismidagi nuqsonni sun'iy qoplamalar bilan davolashga bo'lgan ko'rsatmalar. Sun'iy qoplama turlari. Sun'iy qoplamalarga bo'lgan klinik talablar. Sun'iy qoplamalar tayorlashning umumiy va boshqa klinik-laboratoriya bosqichlari. Metalldan ezib tayyorlanadigan qoplamalarga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.</p>
1.13	<p><i>Qoplamalar</i> To'g'ri tayyorlangan qoplamalarga bo'lgan talablar. Metall qoplamalarni oqartirish va oxirgi ishlovi. Qoplamalarni pardoqlash sifatini baholash. Turli xil qoplamalar tayorlashning klinik-laborator bosqichlari. Yaxlit quyma qoplamalar uchun tishlarni charxlash. Mumni metallga almashtirish. Chinni massasini metall karkasga bosqichma-bosqich surtish. Plastmassani metall karkasiga bosish. Qoplovchi hom ashyoning rangini tanlash. Press-keramik, dioksid-tsirkon va kompozit ko'priksimon protezlarga ko'rsatmalar.</p>
1.14	<p><i>O'zakli tishlar</i> Tish toj qismi butunlay yukotilganda ogiz bushligining klinikasi, protezlash turlari. Ildizga bo'lgan talablar. O'zakli konstruksiyalar tasnifi. Cho'girli o'zakli konstruksiyalar bilan tiklash. Kopeykin bo'yicha o'zakli tishlarni bir va ikki ildizli parallel kanallarga tayyorlanishining usuli. O'zakli tishning konstruksiyasini tayyorlanishining bevosita va bilvosita usuli. Noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarga o'zakli konstruksiyalarini tayyorlanishining usullari: Standart o'zaklarning turi. Noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarga standart anker o'zaklar termasi va kompozitlar</p>

	yordamida chugirli o'zak konstruksiyalarini tayyorlashning bevosita usuli.
1.15	<p><i>Ko'p ildizli tishlarda o'zakli tishlar</i></p> <p>Tish toj qismi butunlay yukotilganda ogiz bushligining klinikasi, protezlash turlari. Ildizga bo'lgan talablar. O'zakli konstruksiyalar tasnifi. Cho'girli o'zakli konstruksiyalar bilan tiklash. Kopeykin bo'yicha o'zakli tishlarni bir va ikki ildizli parallel kanallarga tayyorlanishining usuli. O'zakli tishning konstruksiyasini tayyorlanishining bevosita va bilvosita usuli. Noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarga o'zakli konstruksiyalarini tayyorlanishining usullari: Standart o'zaklarning turi. Noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarga standart anker o'zaklar termasi va kompozitlar yordamida chugirli o'zak konstruksiyalarini tayyorlashning bevosita usuli.</p>
1.16	<p><i>Qisman tishsizlik</i></p> <p>Qisman nuksonlarning tasniflari. Kennedi tasnifi, Epplegeyt koidalari. Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezga bo'lgan ko'rsatmalar va uning tarkibiy qismlari. Tish qatorlarining deformatsiyasi. Estetik normalarni, gapirish va chaynov funksiyalarni buzilishi. Og'iz bo'shlig'i tishlarining qisman nuqsonini protezlashga mahsus tayyorlash (terapevtik, xirurgik, ortopedik, ortodontik). Byugel protezlarga kursatmalar, tarkibiy qismlari. Tayanch tishlarga bulgan talablar. Tayanch tishlarni byugel protez bilan davolashga tayyorlash. Parallelometriya. Utga chidamli modellarni tayyorlash, byugel protezlarning yoyini kuyish. Implantatlarga tayangan xolda byugel protezini tayyorlashning uziga xos tomonlari. Zamonaviy xomashyolardan (vallplast, kadrotti) yoyli protezlarni tayyorlash. Ularni ijobiy va sarbiy tomonlari. Klinik-laborator boskichlari. Yoyli protezlarni tayyorlash boskichlarida uchraydigan xato va kamchiliklar. Attachmenlar. Ularning turlari.</p>
1.17	<p><i>Modellar ishlatilishi</i></p> <p>Modellar, modellarning tasnifi. Maksudlari buyicha modellarning turlari. Gipsli modellar (ishlaydigan, yordamchi, diagnostik, kombinirlangan). Modellarga kuyiladigan talablar. Modellashtirish uchun ishlatiladigan xom ashyolar. Kombinirlangan modellar. Kombinirlangan modellarni ishlab chikarish usullari. Modellarni okklyudator va artikulyatorlarga giplash. Yukori va pastki jag' tishlarining anatomik shakillarini mumdan yasash (modellashtirish). Diagnostik modellarni urganish.</p>
1.18	<p><i>Qisman tishsizlikda protezlash bosqichlari</i></p> <p>Mumli asos va bolishlarni tayyorlash koidalari, ularga bulgan talablar. Turli hil qisman tishsizlikda markaziy okklyuziyani aniqlash asoslari. Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezga ezib tayerlanadigan klammerlar turlari. Simli klammerni egish boskichlari. Sun'iy tishlar turlari. Ularni tanlash va terish mezonlari. Vasilev buyicha sun'iy tishlarni terish asoslari. Protezni yakuniy shakillantirish koidalari. Mumli protezni kyuvetaga kumish turlari. Polimerizatsiya koidalari. Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezini o'lchab ko'rish. Qisman olib qo'yiluvchi plastinkali tish protezni o'lchash va topshirish bosqichlari. Protezlarga kunikish boskichlari. Bemorlarga nasixat berish. Kisman olib kuyiladigan plastinkasimon protezlashda uchrashi mumkin bo'lgan hatoliklar va asoratlar, ularni oldini olish.</p>
1.19	<p><i>To'liq tishsizlikda protezlash, immidiat protezlar</i></p> <p>To'liq tishsizlik, etiologiya va patogenezi. Tishsiz jag'lar klinikasi. Anatomafiziologik o'zgarishlari. To'liq olib kuyiladigan tish protezlarni tayyorlashda klinik-laborator bosqichlari. To'liq olib qo'yiladigan tish protezlarni tayyorlashda turli xil asoratlar. Estetik ortopedik stomatologiya asoslari, tish protezlari konstruksiyasida estetik konunlarni barpo etish.. Immediat protezlarni o'rni, qo'llashga bo'lgan ko'rsatmalar. To'liq olib qo'yiladigan tish protezlaridan foydalanish muddatini uzaytirish. Keksalik yoshdagi bemorlarni tishlarni to'liq yo'qotgandagi holati. Terminologiya. Tishsiz jag'larning tasnifi.</p>
1.20	<p><i>Chakka pastki jag' bo'g'imining plashda ahamiyati</i></p> <p>Markaziy jiplashuv. Pastki jag'ning determinant harakati. Chaynov va yutish</p>

	<p>aktlari. Pastki jag‘harakatlarini ta‘minlovchi apparatlar. Yoysiz va yoyli artikulyatorlar. Shamir o‘qini joylashuvi. Bo‘g‘im harakati registrasiyasi. Okklyuziyaaro jiplashuvning registrasiyasi. To‘liq ikkilamchi adentiya bo‘lgan bemorlarga materiallar ishlatish. Umum somatik kasalliklari bo‘lgan bemorlarni ortopedik davolashga tayyorlash. Laboratoriyada mumli bolishchalarini tayyorlash asoslari. To‘liq olib qo‘yiladigan tish protezlarni tayyorlashdagi laborator bosqichlari. Sun‘iy tishlarni tanlash va terish.</p>
1.21	<p>Protezlashdan keyigi holat va asoratlar</p> <p>Operasion yuzani qurukligini ta‘minlab berish va yumshoq to‘qimalar bilan ishlash. Protez o‘lchash. Tish protezlari yuzasini sayqallash. Protezni topshirish. To‘liq olib qo‘yiladigan tish protezlaridan foydalangandan keyingi asoratlar va asoratlarni oldini olish. To‘liq olib qo‘yiladigan tish protezlaridan foydalanish muddatini uzaytirish: qayta bazislash, tuzatish. Ortopedik muolajalarga bemorlarni psixo-terapevtik tayyorlash. Biogen protezlash tizimi. Nutq funksiyasini normallashtirish uchun protez bazisini loyixalash. Protez bazisini modellashtirish. Plastmassadan tayyorlangan protezlarga karshi reaksiya. Vrach ortoped tomonidan yo‘l qo‘yiladigan deontologik, texnologik xato asoratlar. Ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanishning bemorlarni alternative protokollariga ta‘siri.</p>
1.22	<p>To‘liq tishsizlikda implantologiya</p> <p>To‘liq tishsizlikda implantologiya usulini o‘rni. Implantatlar yordamida tish protezlash asoslari. To‘liq olib qo‘yiladigan protezlarni implantatlar yordamida mahkamlash printsiplari. Ikki qavatli tish protezlarning qo‘llash. Ularga bo‘lgan ko‘rsatmalar. Implantasiya usullari - bevosita, kechiktirilgan, bir va ikki boskichli. Osteointegrasiya asoslari. To‘liq olib qo‘yiladigan tish protezlashda osteointegrasiya jarayonini o‘rni. To‘liq olib qo‘yiladigan protezlarni implantatlar bilan protezlashdan keyingi muammo va asoratlar. Olib qo‘yiladigan protezlarda mini-implantatlardan foydalanish.</p>

5. Ortopedik stomatologiya faniga oid kognitiv ko‘nikma darajasi

1.	<p>Quyi kognitiv daraja</p>	<ul style="list-style-type: none"> - ortopedik atamalar, asosiy ortopedik obyektlar, hodisalar va jarayonlarni bilish; - ortopedik hodisalar, jarayonlar, umumortopedik qonuniyatlar mohiyatini tushunish. - okklyuziya asoslari bilish; - Markaziy jiplashuvni asoslari bilish; - pastki jag‘ning determinant harakati bilish; - chaynov va yutish aktlarini asoslari bilish; - terapevtik tayyorlash asoslari bilish; - to‘liq olib qo‘yiladigan tish protezlarni tayyorlashdagi laborator bosqichlarini asoslarini; estetik ortopedik stomatologiya asoslari bilish.
----	-----------------------------	---

2.	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - bemor og‘zidan anatomik, ikki qavatli, yordamchi qoliplarni olish; - shaxsiy qoshiq yordamida funktsional qolip olish bajarish; - borlarni farqlay bilish va turli dastaklarga fiksasiya qilish; - tishlarni tanlab charxlashni bajarish; - okklyuziografiya o‘tkazishni bajarish; - mumli bolishchalarni tayyorlashni bajarish; - mumli bolishchalar yordamida Markaziy jipslashuvni o‘lchashni bajarish; - tish protezini mumli asosini og‘iz bo‘shlig‘ida o‘lchashni bajarish; - to‘liq olib qo‘yiladigan tish protezini bemorga topshirishni bajarish; - to‘liq olib qo‘yiladigan tish protezni asosini qayta tiklashni bajarish; - singan to‘liq olib qo‘yiladigan tish protezini tiklash uchun qolip olishni bajarish; - to‘liq olib qo‘yiladigan tish protezini chegarasini korrektsiya qilishni bajarish.
----	------------------------------	--

6. Ortopedik stomatologiya fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Ortopedik stomatologiya faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta‘lim standartlari, biologiya fani umumta‘lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi	
Ortopedik stomatologiya	Ortopedik stomatologiya obyektlar va ularda boradigan jarayonlarni tushunish kompetensiyasi	Ortopedik stomatologiya fan sifatida	Ortopedik stomatologiya fanlar sistemasi, fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Ortopedik stomatologiya fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning ortopedik stomatologiya fani rivojiga qo‘shgan hissalar.	1.1.1
			Yo‘qotilgan tish o‘nini va tish qatorlarini hamda tish-jag‘ tizimini tiklashni tushunish.	1.1.2
	Ortopedik stomatologiya tizim sifatida		Tish va tish qatorlari haqidagi ma‘lumotlarni tushunish.	1.2.1
			Tishlarni qimirlash darjasini va edirilishni tushunish.	1.2.2
			Chakka pastki jag‘ bo‘g‘imi tish qatoriga ta‘sirini tushunish.	1.2.3
			Normal holatdan tishlarni olinishi natijasida kelib chiqadigan asoratlarni tushunish.	1.2.4
		Fakultativ ortopedik stomatologiya	Tish qatorlarining buzilishi, qisman tishsizlikni bartaraf etishni.	1.3.1

			Saqalanib qolgan tishlarni qisman tishsizkida tayanch sifatida tanlashni tushunish.	1.3.2
			Qisman tishsizlikni tasnifi va bartaraf etish uchun protez turlarini tanlashni tushunish.	1.3.3
			Fantom va zamonaviy texnologiyaga oid bilimlarni tushunish.	1.3.4
	Ortopedik stomatologiya obyektlarda boradigan jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni xulosa qilish	Gospital ortopedik stomatologiya	To'liq tishsizlikda yuz-jag' tizimidagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni bilish.	2.1.1
			To'liq olib qo'yiladigan protelar oid umumiy ma'lumotlarni bilish va tushunish.	2.1.2
			Olib qo'yiladigan protezlar va ularning turlari ma'lumotlarni bilish va tushunish.	2.1.3
			Olib qo'yiladigan protezlar klinik laborator tayorlanishini bilish va tushunish.	2.1.4
			To'liq tishsizlikda Markaziy jipslashuvni o'lchash asoslarini bilish va tushunish.	2.1.5
			Bemor og'zidan anatomik, funktsional, ikki qavatli, yordamchi qoliqlarni olish asoslarini bilish va tushunish.	2.1.6
	Kognitiv kompetensiya	Mantiqiy fikrlashga asoslangan masala va topshiriqlarni bajarish	Stomatologik hodisa, jarayon, nazariya va qonuniyatlar hamda tushunchalar bo'yicha mantiqiy fikrlashga asoslangan masalalar, grafik va rasmi topshiriqlarni bajara olish.	3.1.1

Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Irsaliev X.I., Nigmatov R.N., Xabilov N.L. Ortopedik stomatologiyasi. 2011
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "o'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "o'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Abolmasov N. G. Abolmasov N. N. Bichkov V. A. Shamshurina V. R. Zametshenie defektov Zubov i zubnix ryadov nes'yomnimi protezami. Smolensk, 1995g.
5. Julev E.N. Nes'emnie protezi (Teoriya, klinika i Laboratornaya texnika) Izdatelstvo ngma, Nijniy Novgorod, 2000.
6. Julev E.N. Chastichnie s'emnie protezi (Teoriya, klinika i Laboratornaya texnika) Izdatelstvo ngma, Nijniy Novgorod, 2000.
7. Julev E.N. Nes'yomnie protezi N. Novgorod, Izd-vo ngma, 1995g.
8. Iroshnikova E. S. Shevchenko V. I. Parallelometriya v ortopedicheskoy stomatologii. M., Medisina, 1989g.
9. Kalamkarov X. A. Ortopedicheskoe lechenie s primeneniem metallokeramicheskix protezov. Izd-vo "Media-sfera", 1996g.
10. Kopeykin V. N. Oshibki v ortopedicheskoy stomatologii. M., Medisina, 1986 g.
11. Kuzmina E M. Profilaktika stomatologicheskix zabolevaniy. M. 1997.

13. Mirgazizov M.Z. Gyuner V. E. Itin V.I, Monasevich L. A. Sisolyatin P. K. Staroxa A. V. Sverxelasticheskie implantati i konstruktsii iz splavov s pamyatyu formi v stomatologii Izd-vo "kvintessentsiya", M" 1997g.
14. Petrikas A. J. Obezbolivanie Zubov Tver, 1997g.
15. Semenyuk V.M., Vagner V.D., Ongoev P.A. Stomatologiya ortopedicheskaya v voprosax i otvetax.M.2000.

Izoh: Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.